



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

BAYRAMLAR – IJTIMOYIY-MADANIY FAOLIYATINING BIR KO‘RINISHI

Soatov G‘ayrat

Xalqaro innovatsion universitet, dotsent

Annotatsiya

Mazkur narsalarning barchasi ramziy ma’no kasb etgan. Bugungi kungacha tarixiy voqealarning ta’siri, kishilar tafakkuridagi o‘zgarishlar, ayniqsa, zardushtiylik udumlarining bekor qilinishi va man etilishi ramziy ma’nolarga ega bo‘lgan bayram dasturxonini kambag‘allashib ketdi. Bayram dasturxonidan joy olgan narsalar o‘zining ramziylik belgilarini yo‘qotib bo‘ldi, aksariyati unutilib ketdi. Ammo, “Navro‘z”ni bayram sifatida nishonlash saqlanib qoldi.

Kalit so‘zlar: milliy bayramlar, “Navro‘z”, “Mehrjon”, “Guli surh”, Ahriman.

ПРАЗДНИКИ КАК ФОРМА СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Соатов Гайрат

Международный инновационный университет, доцент

Аннотация

Все это носит символический характер. До сих пор, под влиянием исторических событий, изменений в мышлении людей, особенно отмены и запрета зороастрийских обычаев, праздничный стол, имеющий символическое значение, обеднел, предметы на праздничном столе утратили свой символический смысл, и большинство из них были забыты. Однако празднование Навруза как праздника сохранилось.

Ключевые слова: национальные праздники, «Навруз», «Мехрджон», «Гули сурх», Ариман.

FESTIVALS AS A FORM OF SOCIO-CULTURAL ACTIVITY

Soatov Gayrat

International Innovative University, Associate Professor

Abstract

All these things are symbolic. To this day, the influence of historical events, changes in people's thinking, especially the cancellation and prohibition of Zoroastrian customs, the holiday table with symbolic meanings has become poorer, the items on the holiday table have lost their symbolic signs, and most of them have been forgotten. However, the celebration of Navroz as a holiday was preserved.

Keywords: national holidays, "Navroz", "Mehrjon", "Guli surh", "Ahriman".

Dunyoda milliy bayramlari bo‘lmagan biror-bir millatni topish qiyin. Kattami-kichikmi, har bir qabila, elat va millatning o‘ziga xos shodiyona damlarini mujassamlashtiruvchi bayramlari mavjud. Chunki har bir etnik birlik o‘zining murakkab, og‘ir va ziddiyatli turmush tajribalarini qisqa muddat bo‘lsa-da unutishga, ruhiy jihatdan yengillashtirishga, yashash va mehnat qilishga ilhomlantiruvchi quvonchli lahzalarni aynan bayramlar orqali ifodalab kelgan. Shuningdek, bayramlar yosh avlodni ajdodlar taqdiri, kurashlari, quvonch va sinovlaridan saboq chiqarishga, kelgusi hayotiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab olishga, yashashga, kurashishga va hayotning murakkab damlarini yengib o‘tishga ruhlantiruvchi muhim vosita vazifasini ham bajargan.

Darhaqiqat, bayramlarni shaxs kamolotiga hissa qo'shadigan eng muhim ijtimoiy-madaniy qadriyatlar sirasiga kiritish mumkin. Bayramlarning inson va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ko'p qirrali ijtimoiy hodisa sifatidagi ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin. Shu bois ham inson va insoniyatning ma'naviy rivojlanish jarayonini yoritib beruvchi asosiy manbalardan biri sifatida bayramlar alohida o'rin tutadi. Bayramlar tarixini tadqiq etish orqali insoniyat bosib o'tgan davrlar — eng qadimgi zamonlardan to bugungi kungacha bo'lgan jarayonlar, dunyoqarash, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar, ularning shakllanishi, rivojlanishi va ayrim hollarda tanazzulga yuz tutish sabablari haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin. Shuningdek, bayramlar tarixini o'rganish orqali ajdodlarimizning diniy va dunyoviy qarashlari, milliy-ma'naviy qadriyatlari, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabati haqida ham muhim xulosalarga kelish mumkin.

Bugungi kunda keng nishonlanayotgan bayramlar tarkibida shunday unsurlar mavjudki, ular qadim ajdodlarimizning dunyoqarashi, intilishlari va orzu-armonlarini bevosita o'zida mujassamlashtirib kelmoqda. Ayniqsa, bayramlar tarkibidan mustahkam o'rin egallagan marosimlar, rasm-rusumlar, urf-odatlar va ayrim irim-sirimlar o'tmish ajdodlarimizning hayot kechmishlari, turmush tarzi, diniy, axloqiy, estetik va falsafiy qarashlari haqida tasavvur hosil qilishimizga yordam beradi. Ma'lumki, bayramlar sivilizatsion jarayonlarning vujudga kelishi va mustahkamlanishida integrativ vazifani bajarishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi tomondan, bayramlar muayyan madaniy va sivilizatsiyaviy jarayonlar ta'sirida yuzaga keluvchi madaniy fenomen sifatida jamiyatda paydo bo'ladigan ayrim muammolarni, jumladan, etnik birliklararo, aholi tabaqalari o'rtasidagi hamda davlat va fuqarolar o'rtasidagi ziddiyatlarni yumshatish yoki bartaraf etishda ham muhim rol o'ynab kelgan. Ayrim bayramlarning mazmunida insoniyat mavjudligining diniy va dunyoviy asoslari bilan bog'liq muammolar mujassamlashgan bo'ladi. Bayramlar aynan ana shu masalalarning nafaqat farqli, balki o'zaro bog'liq jihatlari, insonning moddiy va ma'naviy-ruhiy tabiatga egaligi masalalarini ham yoritib beradi. Masalan, "Navro'z" va "Mehrjon" bayramlarida nafaqat tabiiy jarayonlar, balki insonning moddiy va ma'naviy hayoti uchun muhim bo'lgan tashqi muhit — tabiatni asrash g'oyasi ham turli san'at janrlari vositasida ifodalanib, uning hayotiy ahamiyati kishilar ongiga singdirib kelingan. Aynan shu jihat insoniyat hayotining tashqi tabiiy muhit bilangina emas, balki insonlarning o'zaro munosabatlari bilan ham chambarchas bog'liq ekanini yaqqol namoyon qiladi.

Bayramlarning shunday ko'rinishlari mavjudki, ularda inson va jamiyatning tashqi tabiiy muhit bilan aloqadorligi, unda sodir bo'ladigan turli hodisalar bilan bog'liq masalalar yoritiladi. Yana ayrim bayramlarda kishilar o'rtasidagi munosabatlar, jamiyat oldida turgan muammolarni birgalikda hal qilish, tub o'zgarishlarni amalga oshirish yo'lida birlashgan odamlarning o'zaro hamkorligi ifodalanadi. Ba'zi bayramlarda esa insoniyatning eng muqaddas orzulari — mustaqillik, erkinlik, ozod va farovon hayot kechirish, hayotning maqsad va mazmunini anglash kabi g'oyalar aks etadi. Shu bilan birga, ayrim bayramlarda ularga qarama-qarshi tushunchalar — betartiblik, maqsadsizlik, umidsizlik va yashashning mazmunsizligi kabi holatlar ham yoritib beriladi. Insoniyat tarixida shunday bayramlar shakllanganki, ularda tabiat hodisalari va jamiyat hayoti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning mutanosib ritmik tamoyillari, kosmik olamning inson va jamiyat hayotiga ta'siri, unda yuz beradigan o'zgarishlar ham tasvirlangan. Vaqt o'tishi bilan insoniyat o'z taqdirining tabiat hodisalari va ijtimoiy voqelikda sodir bo'ladigan jarayonlar bilan bevosita bog'liq tomonlarini bayram harakatlari bilan uyg'unlashtirishga, ularning mutanosibligini yoritishga alohida e'tibor bera boshlagan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda mazkur jarayonlarni bayram tadbirlarining asosiy g'oyasi va maqsadi sifatida talqin etishga qaratilgan ilmiy qarashlar ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu xususda polyak olimi K. Jigulskiy shunday yozadi: "Insoniyat madaniyatining eng katta yutuqlaridan biri — aniq vaqtni hisoblashga yordam beradigan taqvimlarning yaratilishidir. Keyinchalik aynan shu taqvimlar asosida nafaqat ayrim sanalarni bayram sifatida nishonlash, balki bajarilishi zarur

bo‘lgan boshqa faoliyat turlarini ham oldindan belgilab olish imkoniyati paydo bo‘lgan” [1]. Bayramshunos olimlar, xususan rus olimlari M. Baxtin, M. Eliade va boshqalarning fikriga ko‘ra, bayram ruhi hukmron bo‘lgan paytda ayrim insoniy me‘yor va talablar doirasidan chiqish holatlari ham kuzatilishi mumkin. Chunki bayram — bu kishilar orziqib kutgan erkinlikning alohida holatidir. Biroq bayramdagi erkinlik mutlaq emas. U qisqa muddatli, ma‘lum ijtimoiy nazorat doirasidagi erkinlikdir. Bayramshunos A. Mazayev ta‘kidlaganidek, “bayramlar va unda amalga oshiriladigan xatti-harakatlar kishilar uchun muqaddas sanaluvchi xulq-atvor me‘yorlari nazorati ostida bo‘ladi” [2]. Agar bayramlarning o‘tkazilish jarayoniga e‘tibor berilsa, u nafaqat davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, balki bayramni tashkil etishga mas‘ul shaxslar hamda bevosita ishtirokchilar bo‘lgan omma nazorati ostida kechishi kuzatiladi. Chunki bayram ijtimoiy integratsiya mexanizmining muhim tarkibiy qismi bo‘lganligi sababli u muqarrar ravishda mavjud boshqaruv tizimi bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bayramlar ma‘naviy madaniyatning kompleks shakli bo‘lib, milliy madaniyatning qaysi darajada yuksalayotganligini aniqlashning asosiy mezonlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki bayramlar o‘z tarkibida nafaqat adabiyot va san‘atning turli janrlarini, balki xalq og‘zaki ijodi, ramziy tasavvurlar va hatto hujjatli materiallarni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bois ular jamiyatda sodir bo‘layotgan islohotlar, kishilarning tabiat va jamiyatga bo‘lgan munosabatlari, ularning ruhiy kechinmalari va ijtimoiy qarashlarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

Shu ma‘noda, insoniyat tarixining turli bosqichlarida nishonlangan bayramlarga va jamiyatning ularga bo‘lgan munosabatiga qarab har bir davrning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma‘naviy-madaniy hayotiga, kishilarning turmush tarziga baho berish mumkin. Chunki bayramlar har bir davrning ruhini o‘zida mujassamlashtiradi. Ikkinchi tomondan, ular kishilarning ijtimoiy jarayonlarga, davlat olib borayotgan siyosatga, jamiyat hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga, millatning qadriyatlariga va ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan moddiy hamda ma‘naviy madaniyatga bo‘lgan munosabatini aniqlashning ham asosiy mezonlaridan biridir.

Zigmund Freydning ta‘kidlashicha, “bayram — bu ruxsat etilgan, hatto majburiy tarzda odatiy talablaridan ustun turuvchi xatti-harakatlarni bajarishdir” [3]. Bayramlarning asosiy ijtimoiy xususiyati kishilar ruhiyatiga ta‘sir ko‘rsatib, ularni yashashga, mehnat qilishga, totuvlikda istiqomat qilishga va boshqa etnik birliklarning milliy madaniyatini hurmat qilishga undashdan iboratdir. Shu bois bayramlar inson va jamiyat ma‘naviy hayotining ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bayramlar kishilar bilan kishilar, jamiyat bilan fuqarolar, turli etnik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarning nafaqat tarkibiy elementi, balki ularni takomillashtirish va mustahkamlashning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki, vaqt o‘tishi bilan jamiyat o‘zgaradi, qadriyatlar o‘zgaradi. Bayramlar ana shu o‘zgarishlarni ifodalashning eng samarali va ta‘sirchan vositasidir. Bejizga rus adabiyotshunosi va san‘at nazariyotchisi M. Baxtin bayramni “inson madaniyatining birlamchi shakli” deb baholamagan [4].

“Bayram” so‘zi turkiy kelib chiqishga ega bo‘lib, to‘y, marosim, xursandchilik kabi ma‘nolarni anglatadi. Bayram tushunchasiga berilgan turli talqinlar orasida falsafiy ensiklopediyadagi “Bayram — insonlar xursandchiligining yig‘indisi” degan ta‘rif mazmunan eng uyg‘un talqinlardan biri hisoblanadi. Chunki bayram kishilarning nafaqat tabiatdan ta‘sirlanishidan, balki ijtimoiy hayotning muhim jihatlarini ham shodiyona kayfiyat va xursandchilik bilan uyg‘unlashtirishidan dalolat beradi.

Bayramlar, bir tomondan, davlat va jamoat tashkilotlarining jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlardagi o‘rni va rolini, ikkinchi tomondan esa millatning o‘z milliy qadriyatlarini saqlash va takomillashtirishdagi imkoniyatlarini namoyon etadi. Uchinchi jihatdan, ular aholining mazkur o‘zgarishlarni tashkil etishdagi ishtirok darajasini ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, qaysi davr va qaysi sharoitda nishonlanishidan qat‘i nazar, bayramlar xalqning ruhiy holatini,

atrof-muhit va jamiyatga bo'lgan munosabatini anglashning eng samarali vositalaridan biridir. Nihoyat, bayramlar ayrim hollarda tarqoq holga kelib qolgan xalqni birlashtirish, jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni xalqqa tushuntirish va uni shu yo'lda safarbar etish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Insoniyat hayotida ma'lum bir davrda nishonlangan bayramlarni tahlil qilar ekanmiz, ular quyidagi asosiy ko'rinishlarda namoyon bo'lganini kuzatamiz:

1. Diniy tasavvur va e'tiqodlarni muqaddaslashtiruvchi diniy bayramlar.
2. Ommaviy yig'ilishlar, tabrik nutqlari, namoyishlar va paradlardan iborat ijtimoiy-siyosiy bayramlar.
3. Etnik birlikning o'zligini caklashga qaratilgan bayramlar.
4. Tabiat hodisalaridagi o'zgarishlarni nishonlashga bag'ishlangan bayramlar, masalan, "Navro'z", "Mehrjon", "Sada".
5. Ajdodlardan meros sifatida o'tib kelayotgan an'anaviy bayramlar.
6. Rasmiy dam olish kuni sifatida belgilangan bayramlar.
7. Insoniyat hayotidagi burilish nuqtalarini nishonlashga qaratilgan xalqaro bayramlar.
8. Muayyan kasb egalarini ruhlantirish maqsadida nishonlanadigan bayramlar.
9. Ommaviy o'yin va sayllarga bag'ishlangan bayramlar.
10. Sport musobaqalari va o'yinlari bilan bog'liq bayramlar.
11. Insoniyat hayotidagi tub burilishlarni yoki xotirani muqaddaslashtiruvchi bayramlar.
12. Yoshlar festivallari va shu kabi boshqa turdagi bayramlar.

Bayramlar tarixiga chuqurroq nazar tashlansa, bayramona ruhiyatning vujudga kelishida kishilarning mashaqqatli mehnat natijalaridan quvonchi ham, inson tomonidan hali to'liq anglab yetilmagan tabiat hodisalari, fasllarning almashinuvi kabi jarayonlar ham muhim o'rin tutganini anglash mumkin. "Navro'z" va "Guli surx" ("Qizil gul sayli") kabi bayram kunlarida shahar-mahar kezeb yuruvchi qiziqchilar, ashulachilar, sozandalar, masxarabozlar, dorbozlar, muallaqchilar va qo'g'irchoqbozlar o'z mahoratini namoyish qilib, xalqqa xush kayfiyat ulashgan. Ular ijro etadigan tomoshalar kishilarda ko'tarinkilik kayfiyatini vujudga keltirib, og'ir mehnat va turmush tashvishlarini yengillashtirishga xizmat qilgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, "Navro'z" Ahamoniylar davridan, ya'ni miloddan avvalgi 558–330-yillardan boshlab rasmiy bayram sifatida nishonlana boshlagan. "Navro'z"dan tashqari birorta bayram qadimiy manbalarda bu qadar keng yoritilmagan. Uning rasmiy bayram sifatida nishonlanishi haqida Beruniy quyidagicha yozadi: "Eron olimlarining ba'zisi: bu kunni Navro'z deb atashning sababi shuki, Jamshid podshoh bo'lgach, majusiylar dinini yangiladi va bu ish qilingan kun, ya'ni Navro'z 'yangi kun' deb ataldi, bu kun, garchi u undan oldin ham hurmat qilingan bo'lsa-da, hayitga aylantirildi" [5]. Umar Xayyom ham "Navro'znomasi" asarida uning qadimiyligini quyidagicha ta'kidlaydi: "Jamshid... o'sha kunda bayram tashkil qildi, unga Navro'z deb nom berdi va odamlar har yili Farvardin kelganda bayram qilishni va o'sha kunni yangi yil deb hisoblashni buyurdi" [6]. Navro'zning boshlanish sanasi Yerning Quyosh atrofida aylanishiga asoslanadi. Quyosh bahorgi tengkunlikda hamal burjiga kiradi. 21-mart kuni Quyosh nurlari Yer ekvatoriga tik tushadi va kecha-kunduz tenglashadi. Xuddi shuningdek, 23-sentabrda kuzgi tengkunlik sodir bo'ladi. Shu sababdan qadimgi Eronda bahorgi tengkunlikda "Navro'z", kuzgi tengkunlikda esa "Mehrjon" bayramlari nishonlangan. Aynan ana shu taqvimiy holatdan kelib chiqib, Beruniy "Navro'z" va "Mehrjon" bayramlarini Quyosh va Oyga qiyoslab: "Quyosh va Oy falakning ikki ko'zi bo'lganidek, Navro'z va Mehrjon zamonning ikki ko'zidir", deb ta'kidlagan.

Navro'z arafasida bajarilgan udumlar

1. Bayram oldidan gunohlardan poklanish uchun tavba qilish, arazlashganlar bilan yarashish va qarzlardan qutilish lozim deb hisoblangan.
2. Ezgulik farishtalari xonadondan yuz o'girmasligi uchun uy va uning atroflarini tozalash talab qilingan. Chunki farishtalar toza xonadonga baraka olib kiradi, degan tasavvur mavjud

bo'lgan.

3. Bayram oldidan kir yuvish, ayniqsa yosh bolalarning kiyimlarini tozalashga alohida e'tibor berilgan. Chunki yosh bolalar "ko'zga yaqin" deb hisoblangan.

4. Navro'zdan bir hafta oldin ajdodlar ruhiga bag'ishlab is chiqarish, ya'ni ulardan yangi yilda oilani turli ko'ngilsizliklardan asrashni so'rash odati mavjud bo'lgan.

5. Yangi yil arafasida o'zlarini ramziy poklash maqsadida so'nggi chorshanbada ko'chalarda gulxanlar yoqilib, odamlar ulardan yetti martadan sakrab o'tganlar. Bu odat "xursandchilik chorshanbasi" sifatida qaralgan.

6. Eski yilning oxirgi kechasida o'tgan yil gunohlaridan poklanish uchun bir-birlariga suv sepish va kichik ariqlar ustidan sakrash odati ham keng tarqalgan.

Navro'z arafasida, qorong'u tushgach, oila a'zolari yangi kiyimlar kiyib, bayram dasturxonini atrofiga yig'ilganlar. Dasturxoniga yangi idishlar qo'yilgan va "haft-sin" deb nomlanuvchi mahsulotlar — sipand (isiriq), seb (olma), siyاهدane (qora urug'), sanjid (yovvoyi zaytun urug'i), sirka, ser (sarimsoq), sabza (unib chiqqan maysa) joylashtirilgan. Mazkur unsurlar keyinchalik bayram dasturxonining an'anaviy majburiy elementiga aylangan. Eronda esa quyidagilar bayram dasturxonining asosiy unsurlari hisoblangan: soqcha — tanga, sirka — ukusus, sir — sarimsoq, sumak — ziravor, samanu — unib chiqqan bug'doydan tayyorlangan sumalak, sanjed — zaytun urug'i, sabza — ko'katlar. Shuningdek, Navro'z dasturxonida tabiatning uyg'onishi ramzi sifatida zig'ir va arpa maysalari ham o'rin olgan. Dasturxon ustiga ravon hayot yo'lini ifodalovchi oyna va oila a'zolari soniga qarab shamlar yoqib qo'yilgan. Stol ustidagi yetti xil buyum va mahsulotlar butun olamni charog'on qiluvchi, yovuzlik ruhi Ahrimanning yordamchilariga qiron keltiruvchi, barcha o'simlik va jonzoqlarning hayot manbai bo'lgan Quyoshga ramziy sovg'a sifatida talqin qilingan. Zardushtiylarning tasavvuriga ko'ra, Quyosh bu sovg'alarni qabul qilib, mo'l-ko'l hosil hadya etadi.

Bundan tashqari, bayram dasturxonida tiriklik ramzi bo'lgan non, hayotning shirin kechishini anglatuvchi shirinliklar, barg suzib turgan suvli idish, atirgul suvi, mevalar, yong'oq, bodom, baliq, xo'roz, sut, pishloq va rangli tuxumlar ham o'rin olgan. Demak, bayramning madaniy hodisa sifatidagi mohiyati uning turli sivilizatsiyalarning o'ziga xos tomonlarini namoyon etishi, ma'lum ijtimoiy-madaniy tizimlarning bir-biridan farqli jihatlarini aks ettirishi bilan belgilanadi. Bayramlar har qanday sivilizatsiyaning nafaqat eng muhim elementi, balki uning sivilizatsiyaviy jarayonda tutgan o'rni, qaysi tarkibiy qismlar bilan mustahkam aloqada bo'lishi va qaysi tizimlarni shakllantirishda muhim rol o'ynashini aniqlashga ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, sivilizatsiyaviy jarayonlar tarixi shuni ko'rsatadiki, insoniyatni o'zi yaratgan madaniy qadriyatlar va yutuqlar bilan tanishtiradigan bayramlar har doim inson ma'naviy dunyosiga ta'sir etishning samarali vositasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Bayramlar o'z davrining ko'zgusi hisoblanadi. Bayramlarga qarab har qanday etnik birlikning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy jihatdan qay darajada rivojlanganini yoki tanazzulga yuz tutganini, ularning qiziqishlari, intilishlari va kelajakka bo'lgan ishonchini aniqlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kazimierz Żygulski К. Праздник и культура / пер. с польск. – М.: Прогресс, 1985. – С. 58.
2. А.И. Праздник как социально-художественное явление. – М.: Наука, 1978. – С. 9.
3. Sigmund Freud З. Тотем и табу: психология первобытной культуры и религии. – М.: Олимп-АСТ, 1997. – С. 70.
4. Mikhail Bakhtin М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура Средневековья и Ренессанса. – М.: Художественная литература, 1990. – С. 13.
5. Abu Rayhan al-Biruni А.Р. Памятники минувших поколений (Қадимги халклардан қолган ёдгорликлар). – Ташкент, 1969. – С. 254.
6. Omar Khaууam О. Наврузнама. – Ташкент: Меҳнат, 1990. – С. 15.
7. Beknazarov S. Древние скифские племена и процесс их расселения. – 2025. – С. 219–225.